

ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDA INSONIYLIK VA MAS'ULIYAT MASALASI

Ilmiy rahbar: Amonov Ulug'murod Sultonovich

BuxDPI dotsenti, f.f.f.d.

Esanova Sabrina Zavqiddin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik vakili Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida insoniylik va mas'uliyat tushunchalarining badiiy talqini tadqiq etiladi.*

Tayanch so'zlar: *Ulug'bek Hamdam, "Ota" romani, insoniylik, ma'naviy mas'uliyat, badiiy psixologizm, ota va farzand, vijdon, ruhiy evrilish, zamonaviy, qahramon talqini.*

Annotatsiya: *В статье исследуется художественная интерпретация понятий человечности и ответственности в романе "Отец" Улугбека Хамдама, крупного представителя современной узбекской литературы.*

Ключевые слова: *Улугбек Хамдам, роман "Отец", человечность, духовная ответственность, художественный психологизм, отец и сын, совесть, духовное преображение, современность, интерпретация героя..*

Annotation: *This article examines the artistic interpretation of the concepts of humanity and responsibility in the novel "Father" by Ulugbek Hamdam, a major representative of modern Uzbek literature.*

Keywords: *Ulugbek Hamdam, the novel "Father", humanity, moral responsibility, artistic psychology, father and child, conscience, spiritual transformation, modern, interpretation of the hero.*

KIRISH

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti inson ruhining murakkab qatlamlarini tadqiq etish, shaxsning o'zligi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini yangicha badiiy talqinlarda ko'rsatish yo'lidan bormoqda. Bugungi kun nasrida inson nafaqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli, balki ma'naviy-axloqiy tanlovlar chorrahasida turgan murakkab xilqat sifatida gavdalanmoqda. Ushbu yo'nalishda ijod qilayotgan iste'dodli yozuvchi Ulug'bek Hamdamning asarlari o'zining falsafiy ko'lami va psixologik teranligi bilan ajralib turadi. Xususan, adibning "Ota" romani insoniylikning eng oliy mezonlari va mas'uliyat tuyg'usining badiiy ifodasi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega.

Romanda insoniylik masalasi shunchaki quruq didaktika yoki axloqiy o'gitlar orqali emas, balki qahramonlarning og'riqli ichki kechinmalari, vijdon azoblari va o'z-o'zini anglash jarayonlari orqali yoritilgan. Yozuvchi "Ota" timsolida shaxsning oila,



farzand va eng muhimi, o'z vijdoni oldidagi burchini tahlil tarozisiga qo'yadi. Asarda insonning hayotda tutgan o'rni uning qabul qilgan qarorlari va o'z zimmasiga olgan mas'uliyati bilan belgilanishi badiiy mahorat bilan ko'rsatilgan.

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani insoniy qadr-qimmatning evrilishlari, mas'uliyat hissizligining fojiviy oqibatlar va ma'naviy poklanish yo'llari adabiy-tanqidiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallifning badiiy niyati va qahramonlar xarakterini shakllantirishdagi psixologik usullari asarning g'oyaviy markazi bo'lgan insoniylik konsepsiyasi bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani insonning o'zligi bilan yuzma-yuz kelishi tasviridan boshlanadi. Asarda insoniylik tushunchasi tashqi xatti-harakatlar bilan emas, balki ichki niyat va vijdon uyg'oqligi bilan o'lchanadi. Bosh qahramon ruhiyatidagi iztiroblar shuni ko'rsatadiki, inson qachonki o'z xatolarini tan olish va ularni tuzatishga intilish kuchini topsagina, haqiqiy insoniy qiyofasini saqlab qoladi. Yozuvchi asar davomida shaxsning jamiyatdagi mavqeyi uning ma'naviy butunligi oldida ikkinchi darajali ekanligini mahorat bilan tasvirlaydi.

Romanning g'oyaviy markazida mas'uliyat masalasi turadi. Bu mas'uliyat bir necha bosqichda namoyon bo'ladi:

Oila oldidagi mas'uliyat: Ota timsoli orqali Po'lat naslning davomiyligi, farzand tarbiyasi va oila muqaddasligi uchun javobgarlik hissi tahlil qilinadi.

O'tmish oldidagi mas'uliyat: Qahramonning o'z o'tmishidagi xatolari bilan hisoblashishi, "kecha" va "bugun" o'rtasidagi ma'naviy ko'prikn tikiashga urinishi mas'uliyatning eng og'ir yukidir.

Yaratgan va o'zlik oldidagi mas'uliyat: Asardagi falsafiy mushohadalar insonning dunyoga kelishidagi asl maqsadi va ilohiy omonatga xiyonat qilmaslik masalasiga borib taqaladi.

Asardagi Ota obrazi murakkab va ziddiyatli xarakterdir. U mukammal inson sifatida emas, balki hayot yo'llarida qoqilgan, ammo ma'naviy uyg'onish orqali yuksalgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Uning farzandi-Yog'du bilan munosabatlarida, kutilmagan hayotiy sinovlarda o'zini tutishi orqali muallif muhim bir haqiqatni ilgari suradi: mas'uliyatdan qochish - insoniy fojiaga, mas'uliyatni tan olish esa - najotga olib keladi. Otaning o'z ayblarini yuvish yo'lidagi harakatlari kitobxonni befarq qoldirmaydi va uni o'z hayoti haqida o'ylashga majbur qiladi.

Ulug'bek Hamdam qahramonlarining ichki olamini yoritishda ichki monolog, ramziy detallar va psixologik tahlil usullaridan unumli foydalanadi. Mas'uliyat hissi qahramonning tushlari, xayollari va o'z-o'zi bilan olib boradigan tinimsiz muloqotlari orqali ochib beriladi. Bu esa asarning badiiy ta'sirchanligini oshirib, mavzuni shunchaki ijtimoiy muammo darajasidan falsafiy-estetik hodisa darajasiga ko'taradi.

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi Po'lat obrazi asarning g'oyaviy-badiiy tizimida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Uning ismi va shaxsiyati yozuvchi tomonidan ma'lum bir ramziy ma'no va ijtimoiy-axloqiy yuk bilan yuklangan. Po'lat



ismi o‘zbek tilida “mustahkam”, “egilmas”, “chidamlilik” ma’nolarini anglatadi. Muallif bu ismni tanlash orqali qahramonning xarakteridagi muayyan qirralarga ishora qiladi. Po‘lat o‘z qarashlarida, hayotiy tamoyillarida qat’iy turadigan shaxs. Uning ismi uning “bukulmas” irodasini (ba’zan bu iroda ijobiy, ba’zan esa salbiy ma’noda — o‘z o‘tmishidan voz kechishda) ifodalaydi. “Po‘lat” metali sovuq bo‘lganidek, qahramon ham ko‘pincha his-tuyg‘ulardan ko‘ra aqlga, mantiqqa va jamiyatdagi mavqeyiga tayanadi. U o‘zini himoya qilish uchun atrofidagilar bilan masofa saqlaydigan, “temir qobiq”qa o‘ralgan inson. Po‘lat obrazi orqali yozuvchi zamonaviy shaxs inqirozini ko‘rsatib beradi. Uning shaxsiyatini ikki xil rakursda ko‘rish mumkin. Tashqaridan qaraganda, Po‘lat-o‘z yo‘lini topgan, jamiyatda o‘z o‘rniga ega, moddiy jihatdan ta’minlangan inson. Bu uning “po‘latdek” mustahkam ijtimoiy statusidir. Ichki ma’naviy kemtiklik: Po‘latning asosiy fojiasi uning o‘z o‘tmishidan, ildizlaridan (otasidan) qaysidir ma’noda uzoqlashganidadir. Uning qalbi o‘z ismiddek qattiqlashib ketgan, ammo aynan o‘sha “po‘lat qobiq” ostida ulkan sog‘inch va pushaymonlik yashiringan. Po‘lat asarda shunchaki bir qahramon emas, balki aks-sado (refleksiya) vazifasini bajaradi.

Ota obrazini ochib beruvchi vosita: Po‘latning xatti-harakatlari, uning otasiga bo‘lgan munosabati orqali biz otaning ichki dunyosini, uning qilgan xatolari oqibatini ko‘ramiz. Ota o‘z aksini Po‘latda ko‘radi. Vorislik va mas’uliyat ko‘prigi: Po‘lat — o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi halqa. Uning shaxsiyati orqali “Inson o‘z nasli oldida qanchalik mas’ul?” degan savolga javob izlanadi. Asar davomida Po‘latning shaxsiyati evrilishga uchraydi. U o‘zidagi “po‘lat” qattqlikni yumshatib, insoniy mehr, ota sog‘inchi va tavba tuyg‘ulariga yaqinlashadi. Po‘lat- bu “temir intizom va sovuq mantiq” bilan “issiq insoniy qalb” o‘rtasidagi kurashning timsolidir. Uning ismi uning tashqi qiyofasini va ijtimoiy chidamliligini anglatasa, uning kechinmalari inson har qanday sharoitda ham o‘z ildizlariga, mehr-oqibatga muhtojligini isbotlaydi.

Yog‘du obrazi o‘zining ismi va tabiati bilan asarga o‘zgacha nur, ya’ni ma’naviy yorug‘lik olib kiruvchi qahramondir. Po‘latning turmush o‘rtog‘i sifatida u asarda faqat oila bekasi emas, balki qahramonlar ruhiyatini yorituvchi va ularni ezgulikka chorlovchi ma’naviy filtr vazifasini bajaradi. “Yog‘du” so‘zi o‘zbek tilida “nur”, “shula”, “yorug‘lik” ma’nolarini anglatadi. Muallif bu ismni tanlash orqali asardagi zulmatli kechinmalar va og‘ir ruhiy iztiroblar orasida bir najot yo‘li borligiga ishora qiladi. Asar qahramonlari (ayniqsa, Po‘lat va Ota) o‘tmish pushaymonlari va ichki zug‘umlar bilan kurashayotgan bir paytda, Yog‘du o‘zining borligi bilan ularning hayotiga iliqlik olib kiradi. Uning ismi uning qalbi pokligini, g‘arazli niyatlardan xoli ekanligini bildiradi. U Po‘latning “po‘latdek” qattiq va sovuq olamini yumshata oladigan yagona kuchdir. Yog‘du - o‘zbek ayolining eng go‘zal fazilatlarini (sabr, itoat, mehr va tushunish) o‘zida mujassam etgan obraz. Uning shaxsiyatida quyidagi jihatlar ustuvor. U turmush o‘rtog‘i Po‘latning ichki dunyosidagi kemtikliklarni, uning aytilmagan dardlarini yurakdan his qiladi. Po‘lat o‘zini muvaffaqiyatli ko‘rsatishga



urinayotganda ham, Yog‘du uning qalbi nuri so‘nayotganini payqaydi. Yog‘du oilada faqat rafiqqa emas, balki mehr-oqibat rishtalarini bog‘lab turuvchi zanjirdir. Uning xatti-harakatlarida ayollik nafosati bilan birga, insonni kechirishga va tushunishga bo‘lgan cheksiz intilish bor. Yog‘du obrazining asar syujetidagi o‘rni bir necha muhim funksiyalarni bajaradi. Po‘latning “Vijdon oynasi” Po‘lat ko‘pincha o‘z mag‘rurligi yoki ijtimoiy statusi tufayli ayrim insoniy tuyg‘ulardan uzoqlashadi. Yog‘du esa o‘zining samimiyati bilan unga o‘zligini, asliyatini eslatib turadi. U Po‘latni moddiylikdan ma’naviyat sari yetaklovchi ma’naviy yo‘lboshchidir. Yog‘du Ota (qaynotasi) obraziga nisbatan ham alohida hurmat va mehr bilan yondashadi. Uning bu munosabati Po‘latning otasi bilan bo‘lgan sovuq munosabatlarini yumshatishga xizmat qiladi. Roman ruhiy zo‘riqishlar va fojaviy mushohadalar ustiga qurilgan. Yog‘du obrazi asardagi mana shu og‘irlikni muvozanatga solib, kitobxonda ezgulikka bo‘lgan ishonchni uyg‘otadi. Agar Po‘lat -mustahkamlik, qat‘iyat va ba‘zan sovuq mantiq timsoli bo‘lsa, Yog‘du - uning hayotini mazmun bilan to‘ldiruvchi, qalbidagi muzlarni erituvchi yorug‘likdir. Ularning juftligi orqali Ulug‘bek Hamdam insoniy baxt faqat iroda (po‘lat) bilan emas, balki mehr va nur (yog‘du) bilan ham qurilishini ko‘rsatib bergan.

Sevinch obrazi asarning eng fojiali va mazmunli chiziqlaridan birini tashkil etadi. Uning taqdiri orqali yozuvchi mas‘uliyat, xato, jazo va kechirim tushunchalarini o‘ta ta’sirli tarzda yoritgan. Qahramonga “Sevinch” deb ism qo‘yilishi asarda ironiya (keshiriq) usulidan foydalanilganini ko‘rsatadi. Ismi shodlikni anglatga-da, uning hayoti azob va iztirobdan iborat. Bu orqali muallif inson o‘z baxtini (sevinchini) mas‘uliyatsiz qarorlar orqali qanday qilib fojiaga aylantirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Sevinchning yuzi yong‘inda yomon bo‘lib kuyishi shunchaki baxtsiz hodisa emas, balki asarning markazi ramziy detali hisoblanadi. Sevinchning go‘zal yuzi kuyib, tanib bo‘lmas holga kelishi — uning otasidan beruxsat qilgan ishlari, ma’naviy isyoni va xatolarining tashqi ko‘rinishdagi in’ikosidir. Kuygan yuz qahramon uchun doimiy azob va eslatma vazifasini o‘taydi. U ko‘zguga qaraganda nafaqat jarohatini, balki otasining yuziga oyoq bosganini, burchini unutganini ko‘radi. Bu olov uni ham jismonan, ham ma’nan “tozalash” (poklash) vazifasini ham o‘taydi. Sevinchning otasidan ruxsatsiz, o‘z bilganicha birov bilan turmush qurishi - asardagi tartibsizlik va anarxiya timsolidir. Ota - bu ildiz va tartib. Sevinch esa bu ildizdan uzildi. U “erkinlik” deb o‘ylagan narsasi aslida mas‘uliyatsizlik ekanini kech anglaydi. Uning bu qarori nafaqat o‘z hayotini, balki butun oilaning ma’naviy ustunlarini sarsitadi. Bu harakat asardagi “Inson o‘z yaqinlari oldida javobgar” degan g‘oyani teskari isbotlash uchun xizmat qiladi. Sevinchning farzandi Yodgorning ismi ham bejiz tanlanmagan. “Yodgor” - o‘tganlardan, o‘tmishdan qolgan belgi. U Sevinchning adashgan yillaridan, qilgan xatolaridan va qisqa muddatli “baxt”idan qolgan yagona tirik yodgorlikdir. Yodgor obrazi Sevinch uchun ham jazo, ham najotdir. U bolasi orqali o‘z xatosining mevasini



ko‘radi (chunki bola otasiz yoki nosog‘lom muhitda o‘smoqda), lekin aynan shu bola uni hayotga bog‘lab turadi va ota (bobosi) bilan qayta bog‘lanishiga sababchi bo‘ladi.

Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi Erboy obrazi asarda adovat, hasad va ijtimoiy alamzadalikning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Uning Po‘lat va uning oilasiga bo‘lgan munosabati shunchaki shaxsiy kelishmovchilik emas, balki chuqur ildiz otgan psixologik va ijtimoiy komplekslarga borib taqaladi.

Erboy va Po‘lat bitta muhitda, ehtimolki, bir xil imkoniyatlar bilan o‘sgan bo‘lishsa-da, hayotda erishgan natijalari turlicha. Po‘lat - muvaffaqiyatli, jamiyatda o‘z o‘rniga ega, oilasi but va obro‘li inson. Erboy esa o‘zini bu muvaffaqiyatlar soyasida qolib ketgan deb hisoblaydi. Uning alami-o‘zi erisha olmagan “cho‘qqilar”ga Po‘latning chiqqanidan tug‘ilgan ijtimoiy hasaddir.

Erboyning nafрати faqat Po‘latga emas, balki bu oilaning ildizi bo‘lgan Ota tushunchasiga ham qaratilgan. Erboy o‘z hayotidagi barcha omadsizliklar va yetishmovchiliklar uchun o‘zgalarni ayblashga o‘rgangan. U Po‘latning oilasidagi ma‘naviy tartibni, ota-o‘g‘il o‘rtasidagi (garchi murakkab bo‘lsa-da) rishtalarni ko‘ra olmaydi. Uning alami o‘zida mavjud bo‘lmagan ma‘naviy butunlikka nisbatan isyondir. Erboy Sevinchning otasidan beruxsat qilgan xatosini va uning yuzidagi jarohatini Po‘latning oilasini ma‘naviy yakson qilish uchun qurol sifatida ishlatadi. Uning uchun Sevinchning taqdiri qiziq emas, balki bu fojia orqali Po‘latning mag‘rurligini (o‘sha “po‘lat”dek irodasini) sindirish muhim. Erboy — boshqalarning dardi ustiga o‘zining “g‘alaba”sini qurmoqchi bo‘lgan obraz. U Sevinch va Yodgorning holatini Po‘latga qarshi “shantaj” yoki ma‘naviy bosimo‘tkazish vositasi deb biladi. Erboy o‘zini go‘yoki adolat o‘rnatayotgan kishidek tutadi, lekin uning harakatlari zamirida sof adovat yotadi. U Po‘latning oilasidagi har bir yoriqdan (Sevinchning qochib ketishi, oilaviy sirlar) zavqlanadi. Bu alam uning ich-ichini kemirayotgan shaxsiy muvaffaqiyatsizliklarining kompensatsiyasidir. Boshqalarning baxtsizligi unga o‘zining baxtsizligini vaqtincha unutishga yordam beradi. Erboy - antagonist (salbiy qahramon) sifatida asardagi insoniylik va mas‘uliyat g‘oyasiga zid qutbni egallaydi. Agar Po‘lat va Yog‘du quruvchi, birlashtiruvchi kuchlar bo‘lsa, Erboy- buzuvchi va parchalovchi kuchdir. Uning alami orqali yozuvchi inson o‘z ichidagi hasadni jilovlay olmasa, qanchalik tubanlikka tushishi mumkinligini ko‘rsatib bergan.

Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani zamonaviy o‘zbek adabiyotida inson ma‘naviy olamini tadqiq etuvchi eng kuchli asarlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Asar tahlili natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

Yozuvchi insoniylik tushunchasini shunchaki his-tuyg‘u emas, balki shaxsning o‘z xatti-harakatlari uchun mas‘uliyatni zimmasiga olishi sifatida talqin etadi. Ikrom ota timsolida bu mas‘uliyat oila va nasl oldidagi burch bo‘lib namoyon bo‘lsa, Po‘lat obrazida o‘zlikni anglash va ildizlarga qaytish orqali shakllanadi.

Sevinch obrazi orqali muallif hayotiy mas‘uliyatdan qochishning ayanchli oqibatlarini ko‘rsatib beradi. Uning yuzidagi jismoniy jarohat qalbidagi ma‘naviy



inqirozning ramziy in'ikosi bo'lib, olovda kuyish — poklanish va tavba qilishning badiiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Asarda Yog'du va Oychechak opa kabi ayol obrazlari “nur” va “mehr” funksiyasini bajarib, erkak qahramonlarning qattiq, ziddiyatli dunyosini yumshatadi. Bu esa hayotda faqat mantiq va qat'iyat (Po'lat) emas, balki kechirimlilik va nur (Yog'du) ham muhimligini isbotlaydi.

Yozuvchi ushbu asari orqali kitobxonni o'z hayoti haqida mushohada yuritishga, ota-farzand o'rtasidagi uzilgan rishtalarni qayta bog'lashga va har qanday sharoitda ham insoniy qiyofani saqlab qolishga chorlaydi.

Umuman olganda, “Ota” romani shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy statusi emas, balki uning ma'naviy darajasi eng muhim o'lchov ekanligini ta'kidlovchi falsafiy-psixologik asardir. Maqolada keltirilgan tahlillar asarning bugungi kunda ham dolzarbligini va o'zbek adabiyotshunosligi uchun yangi tahliliy ufqlarni ochib berishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.Hamdami. "Ota". Yangi asr avlodi. 2024-yil
2. Hamdamov U. Jahon adabiyoti. Modernizm va Postmodernizm-Toshkent: Akademiknashr, -2020
3. www.ziyo.uz
4. <http://ziyoNet.uz>

